
PROFILAKTIKA TADBIRLARI DAVOM ETTIRILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 may kungi "Ichki ishlar organlari yong'in xavfsizligi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida haftaning har chorshanba kuni "Yong'inlar profilaktikasi kuni" deb belgilandi va davlat yong'in xavfsizligi xizmati xodimlariga bir qator vazifalar yuklatildi.

Belgilangan rejaga asosan shahar yong'in xavfsizligi bo'limi xodimlari, "Vodiygazta'minot" UK shahar filiali, shahar elektr tarmoqlari korxonasi, yong'inga qarshi kurash jamiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda shahrimiz hududida yong'in xavfsizligini ta'minlash, uning sabab va sharoitlarini aniqlash borasida joylarda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Bundan tashqari yong'in sodir bo'lishiga olib keladigan sabab va sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, oldini olish, aholi hayotini hamda davlat mulkini yong'in talafotlaridan asrash to'g'risida korxonalar, tashkilot, yirik savdo komplekslari va bozorlarda, ta'lim-tarbiya va davolash muassasalari ishchi-xodimlari bilan ko'rgazmali vositalar yordamida suhbatlar o'tkazildi. Tadbirlar davomida fuqarolarimizni qiziqtirayotgan savollarga javob berilib, muammolar ijobiy hal etilyapti.

Ma'murjon JUMABOEV,

Farg'ona shahar YoXB katta inspektori, serjant.

2017-10-26 15:32:38